



QASHQADARYO IRRIGATSIYA INSHOOTLARI QURILISHI TARIXSHUNOSLIGI

Jabbarova Ikbol Khujamuratovna

Qarshi davlat universiteti

O'zbekiston tarixi kafedrasida dotsenti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8046010>

ARTICLE INFO

Received: 08th June 2023

Accepted: 15th June 2023

Online: 16th June 2023

KEY WORDS

Irrigatsiya, dehqonchilik,
madaniyat, suv, o'zlashtirish,
sug'orish.

ABSTRACT

Maqolada Qashqadaryo vohasida yangi yerlarning o'zlashtirilishi, sug'orish inshootlarining qurilishi, dehqonchilik vohalarining vujudga kelishi bilan bog'liq madaniyatning shakllanishi tarixiniga oid yaratilgan asarlar o'rganilgan va tahlilga tortilgan.

O'zbekiston mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan oq ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan, qoldirilgan tarixiy, ma'naviy, madaniy merosni tiklash, yosh avlodga tariximizni ilmiylik, xolislik bilan tadqiq etilgan tarixni ochib berish davlat siyosati darajasidagi muhim vazifa sifatida e'tibor qaratilib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh. Mirziyoyev: "Hamma o'z tarixini ulug'laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q. Bu merosni chuqur o'rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak"[1] ligini o'ziyoq biz tadqiqotchilarga hali ko'p izlanishlar orqali vazifani bajarishga hissa qo'shishimizdek mas'uliyatni yuklaydi.

Ma'lumki, O'zbekiston tarixida qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning yirik va o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda jahonda oziq-ovqat xavfsizligi, ekologik toza mahsulotlarning ishlab chiqarish borasidagi dolzarb vazifalar mavjudki, biz iqtisodiyotimizni, jumladan, qishloq xo'jaligi sohasini modernizatsiya hamda diversifikatsiya qilish, sifatli oziq-ovqat ekinlari yetishtirishga alohida e'tibor bermoqdamiz[2].

Sovet davlatining xalq xo'jaligini boshqarishning markazlashtirilgan tizimi, ma'muriy-buyruqbozlik bilan olib borilgan islohotlar ijtimoiy-iqtisodiy sohani rivojlantirish yo'lidagi jiddiy to'siq bo'lib keldi. Hukumatning aholi va uning manfaatlari uchun yangi yerlarni o'zlashtirish, sug'orish, ishlov berish hamda parvarish qilishga alohida e'tibor qaratishdek g'amxo'rlik niqobi ostida arzon ishchi kuchi hamda boy tabiiy resurslardan o'z manfaati yo'lida foydalanish maqsadi yotardi. Xususan, markazning ikkinchi jahon urushidan keyin olib borgan qo'shtirnoq ichidagi umumxalq, umumdavlat va baynalmilal manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan siyosati ko'plab idora va vazirliklar, ayrim respublikalar, jumladan O'zbekiston iqtisodiyotini ham haddan tashqari xatarli ahvolga solib qo'ydi. Sovetlarning aniq maqsadi esa xomashyo ishlab chiqarishni yanada ko'paytirish orqali O'zbekistonni paxtachilik bazasiga aylantirish edi.



Markaz hukumati respublikada paxtachilikni taraqqiy ettirishning bosh omili sifatida qaragan va uni rivojlantirish uchun bor imkoniyatlarini sarflagan. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda Qashqadaryo vohasida paxta maydonlarini kengaytirishga zo'r berilgan.

Qashqadaryo viloyati suv omborlari qurilishi tarixi tarixshunosligi borasida mavjud adabiyotlarni tadqiq etar ekanmiz, o'rganishlarimiz shuni ko'rsatadiki, mavzuga doir adabiyotlar tarixchilar tomonidan, shu bilan birga irrigatorlar tomonidan yozilgan. Adabiyotlarda Qashqadaryo viloyatining suv xo'jaligi tarixi, yerlarni o'zlashtirilishi masalalari bilan birga suv omborlari qurilishi holatiga qisqacha to'xtalib o'tilgan, xolos. Dissertatsiyada foydalanilgan adabiyotlarni quyidagi tartibda guruhlash mumkin: 1. Sovet davrida nashr etilgan adabiyotlar; 2. Mustaqillik yillarida nashr qilingan adabiyotlar. 3. xorijiy mualliflar tomonidan nashr qilingan adabiyotlar.

O'zbekistonda paxta yakkahokimligining qaror topishi, yangi yerlarning o'zlashtirilishi va suv inshootlarning barpo etilishi davlat siyosati darajasida olib borildi. Bu esa o'z navbatida davlat buyurtmasi asosida sovet davrida olib borilayotgan agrar siyosatning adabiyotlarda go'zal qiyofada aks ettirilganini kuzatish mumkin. Vaholanki, bir tomonlama o'ylangan markazning istagiga bo'ysundirilgan, faqat paxta monopoliyasi ko'zangan bu siyosatning salbiy jihatlari ochib berilmadi. Sobiq ittifoq davrida tariximizni xolislik asosida yoritish borasida gap bo'lishi mumkin emas edi. Ammo shunday vaziyatda ham bu ishga qo'l o'rilgan ilmiy qo'llanmalar chop etildi. Jumladan, respublikamiz qishloq - xo'jaligi tarixi bilan shug'ullangan eng taniqli olimlardan biri akademik R.X. Aminovning «Аграрная политика Советской власти в Узбекистане (1917-1991). Ташкент, Аграрные преобразования в Узбекистане в годъ перехода советского государства к НЭПУ. Т, Осуществление коллективизация в Узбекистане (1929-1932) [3] adabiyotlari edi. Akademik asarlarida O'rta Osiyodagi agrar munosabatlar tarixi, yangi iqtisodiy siyosatga o'tish jarayonlarida qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar, irrigatsiya ishlarining borishi va sug'orma dehqonchilikning umumiy holati, mehnatkash xalqning qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun harakatlari yoritilgan. Monografiyalarida o'lkada olib borilgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar tarixi va iqtisodiy hayoti batafsil sharhlanganligi bilan muhim ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, qishloq xo'jaligi muammolari hamda sug'orma dehqonchilik, sug'orishni tiklash masalalari ham qisman yoritilgan.

Qashqadaryo vohasi sug'orish tizimi muammolarini o'rganishga bag'ishlangan ishlar ko'lamini ham salmoqli bo'ldi. Xususan, Виноградов Г.Н. Ирригация в долине Кашка-Дарьи. Давыдов А., Качикянц С. Каршинская степь станет краем изобилия // Коммунист Узбекистана, Очерки истории Кашкадарьинской и Сурхандарьинской области Узбекистана советского периода (1917-1932 гг.), Шагазатов Х. Молодость Каршинской степи // Агитатор Узбекистана. Ульджабаев К.У. Развитие орошаемого земледелия и ирригации на юге Узбекистана (1917-1940 гг.); Toshev X. Qashqadaryoda irrigatsiya ishlari[5]; Мавлянов А.Ш. Развитие специализации и концентрации сельскохозяйственного производства в Узбекистана; G'oyibov R. Qarshi dashtining ravnaqi // O'zbekiston qishloq xo'jaligi; Хамраев Н.Р., Халиков И.Х. Орошение и освоение Каршинской степи; Jalolov E. Yashnayotgan voha (Qarshi cho'li o'zlashtirila boshlanganligining 20 yilligiga) // O'zbekiston qishloq xo'jaligi, G'oyipova T.F. Qarshi cho'lida mehnat resurslaridan samarali foydalanish[4] kabi asarlarni keltirish mumkin. Tadqiq



etilayotgan davrda G.N.Vinogradov birinchilardan bo'lib, Qashqadaryo vohasi irrigatsiya sohasini o'rganishga kirishdi. Q.O'ljaboyev va X.Toshevning ishlari ham diqqatga sazovor bo'lib, ularning sa'y-harakatlari bilan voqa sug'orish tizimining 1917-1976 yillardagi holati o'rganildi va monografiya shaklida nashr ettirildi[5]. Q.O'ljaboyev Qashqadaryo vohasida 1917-1940 yillarda amalga oshirilgan yer-suv islohotlari, sug'orma dehqonchilik va irrigatsiya tizimini rivojlanishi masalasini birlamchi arxiv va davriy nashr materiallari asosida o'rgangan.

Sovet davri yillarida sug'orish tarixiga oid asarlarda o'lkamizning holati, tarixini o'rganib tadqiq etish dastlabki maqsadlardan bo'lib Арандаренко Г.А. Заметки обь ирригационной в Зерафшанской долины//досуге в Туркестан (1874-1889), Императорский Академия наук (тип), Маева Н.А. Река Зарафшанъ-реки Шахрисябской долины//Русский Туркестан. Сборникзд.по поводу политехнической выставки, вып. 1, Меддендорф А.Ф. Очерки Ферганской долины. Санктпетербург.тип.Имп.акад.наук, 1882; Пален К.К. Орошение въ Туркестане.-Санктпетербург.: изд.Имп.Акад.наук.; Радлов В.В., Мелиоранский П.М. Средняя Зарафшанского долина ЗИРГО.-Санктпетербург; Кондрашев С.12 правил водопользования//”Туркестанское сельско-хозяйство” [6] kabi mualliflar asarlarida bu borada ma'lumotlarni olishimiz mumkin.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng tarixchilar oldida turgan muhim vazifa O'zbekiston tarixini ilmiylik, xolislik, tarixiylik nuqtai nazardan yoritish bo'ldi.

Viloyatning suv xo'jaligi tarixiga doir Mustaqillik yillarida yozilgan asarlardan M. Xudoyqulovning “Qarshi cho'li”[7] asari alohida diqqatga sazovordir. “Qarshiqurilish” maxsus birlashmasining o'ttiz besh yillik amalga oshirgan qurilish ishlari, xususan, Qarshi cho'lining o'zlashtirilishi, yangi suv inshootlarining barpo etilishi, aholi maskanlarining yaratilishi davriy nashrlar orqali yoritilgan.

Dehqonchilik bilan bog'liq ayrim urf-odatlar va sug'orish tarixi haqida A.Abdulhamidov Из истории народной ирригационной практики в зоне предгорий Узбекистана XIX начало XX вв, А.Asqarov Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана, X.Muhammedov O'zbekistonning qadimgi dehqonchilik vohalari tarixidan[8] nomli tadqiqotlar yaratishgan. Qashqa va Surxon vohalari relyefi, toponimiyasi, etnografiyasini tadqiq qilgan, sug'orma dehqonchilik tarixiga oid ba'zi fikrlar qayd qilingan. Yaqin va O'rta Sharqda XIV–XV asrlarda O'rta Osiyoda yer egaligi, yerga mulkchilik munosabatlari tarixi yaxshi o'rganilgan. Bu sohada ko'pgina tarixchi olimlarimizning xizmatlari tahsinga loyiq. va boshqa olimlarning ishlarini aytish mumkin.

Qashqadaryo vohasining sug'orilish tarixi, bu voqa aholisining suv uchun olib borgan mashaqqatli mehnati tarixidir.

Mavzu tarixshunosligining uchinchi guruhiga xorij mualliflarining asarlari kiritilib, bu tadqiqotlarga Riccardo Mario Cucciolla. The Crisis of Soviet Power in Central Asia: “The cotton affair” (1975-1991)., Benjamin Phol. Rethinking water in Centrak Asia Kandiyoti D. Agrarian Reform, Gender and Land Rights in Uzbekistan. Programme on Social Policy and Development, Spoor M. Agricultural Restructuring and Trends in Rural Inequalities in Central Asia: A Socio-Statistical Survey. Programme on Civil Society and Social Movements, Духовный В.А., Шуттер Ю. Вода в Центральной Азии: прошлое, настоящее, будущее[9] kabi tadqiqotlarini kiritish mumkin. Xususan, Mario Rikardoning “Markaziy Osiyoda Sovet hokimiyatining inqirozi: “paxta ishi” (1975-1991)” nomli dissertatsiyasida 1975-1991



yillardagi Sovet hokimiyatining mustahkamlanishi, paxta yetishtirishga ixtisoslashuvi, "paxta ishi" va bu davrdagi qishloq xo'jaligining ahvoli va undagi ijobiy va salbiy holatlar O'zbekiston misolida ochib berilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak vohada suv xo'jaligi, yer holati, geografik o'ziga xoslik hamda irrigatsiya sohasi qurilishlari hamda undagi yutuq va kamchiliklar tarixchilar, irrigatorlar, geograflar, lingvistlar, mahalliy hamda chet el yozuvchilarning doimiy qiziqish va nazarida bo'lgan. Qashqadaryodagi sug'orilish tarixini o'rganish aynan ana shu tadqiqotlarni tahlilga tortib tadqiq qilish tarixni xolis baholashda yo'lchi yulduz vazifasini o'tay oladi.

References:

1. <https://www.gazeta.uz/uz/2018/12/21/islom-sivilizatsiya>
2. Mirziyoyev. Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. - Toshkent. "O'zbekiston" - 2020. - B. 387-388 .
3. Аминова. Р.Х. «Аграрная политика Советской власти в Узбекистане (1917-1991). - Тошкент, 1963. -344. Аграрные преобразования в Узбекистане в годъ перехода советского государства к НЭПУ. Т.: наука, 1965. -345бет,
4. Виноградов Г.Н. Иригация в долине Кашка-Дарьи. - Ташкент, 1956, - 102 с; Давыдов А., Качикянц С. Каршинская степь станет краем изобилия // Коммунист Узбекистана, 1962. - №11; Очерки истории Кашкадарьинской и Сурхандарьинской области Узбекистана советского периода (1917-1932 гг.). - Ташкент: Наука, 1968. - 259с; Шагазатов Х. Молодость Каршинской степи // Агитатор Узбекистана. - Ташкент, 1971. - С. 9-12.; Ульджабаев К.У. Развитие орошаемого земледелия и иригации на юге Узбекистана (1917-1940 гг.) - Ташкент: Фан, 1976; Toshev X. Qashqadaryoda irrigatsiya ishlari. - Toshkent: O'zbekiston, 1976.-24 b; Мавлянов А.Ш. Развитие специализации и концентрации сельскохозяйственного производства в Узбекистана. - Ташкент: Узбекистан, 1980. - 203 с.; G'oyibov R. Qarshi dashtining ravnaqi // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. - Toshkent, 1981. - №2. - В. 19-21; Хамраев Н.Р., Халиков И.Х. Орошение и освоение Каршинской степи. - Ташкент: Ўзбекистон, 1981. - 168 с.; Jalolov E. Yashnayotgan voha (Qarshi cho'li o'zlashtirila boshlanganligining 20 yilligiga) // O'zbekiston qishlok xo'jaligi. - Toshkent, 1983. - №8. - В. 50-51.; G'oyipova T.F. Qarshi cho'lida mehnat resurslaridan samarali foydalanish. - Toshkent: O'zbekiston, 1984. - 23 b.
5. Ульджабаев К.У. Развитие орошаемого земледелия и иригации на юге Узбекистана (1917-1940 гг.) - Ташкент: Фан, 1976; Toshev X. Qashqadaryoda irrigatsiya ishlari. - Toshkent: O'zbekiston, 1976.-24 b
6. Арандаренко Г.А. Заметки объ иригационной в Зерафшанской долины//досуге в Туркестан (1874-1889). Санктпетербург.: Императорский Академия наук (тип).1889. с.277-279: Маева Н.А. Река Зарафшанъ-реки Шахрисябской долины//Русский Туркестан. Сборник изд. по поводу политехнической выставки, вып. 1. -М.: 1872, 11 с: Меддендорф А.Ф. Очерки Ферганской долины. Санктпетербург.тип.Имп.акад.наук, 1882. -489 с; Пален К.К. Орошение въ Туркестане.-Санктпетербург.: изд.Имп.Акад.наук. 1910. 137-с; Радлов В.В., Мелиоранский П.М. Средняя Зарафшанского долина ЗИРГО.- Санктпетербург. 1880-Т.6.1-66 с; Кондрашев С.12 правил водопользования//"Туркестанское сельско-хозяйство".-Т, 1911. 11. 835-837 с.



7. Xudoyqulov M. Qarshi cho'li. –Toshkent: Sharq, 1998. –320 b.
8. Абдулхамидов А. Из истории народной ирригационной практики в зоне предгорий Узбекистана XIX начало XX вв. – Ташкент: Наука, 1981. – 156 с.; Асқаров А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Тошкент: Наука, 1973. – 231с.; Muhamedov H. O'zbekistonning qadimgi dehqonchilik vohalari tarixidan. – Toshkent, 1964. – 55 b; Рахманов Ф. Обычаи и обряды населения Кашкадарьинского оазиса, связанные земледелием (конец XIX – начало XX вв): Автореф. дис. ... канд. истор. наук. – Ташкент, 1981. – 23 с.
9. Riccardo Mario Cucciolla. The Crisis of Soviet Power in Central Asia: “The cotton affair” (1975-1991). – Lucca (Italy), 2017. PhD Program in Political History XXVIII Cycle, Benjamin Phol. Rethinking water in Central Asia. – Berlin, 2017. – P. 127. Kandiyoti D. Agrarian Reform, Gender and Land Rights in Uzbekistan. Programme on Social Policy and Development, Paper No. 11, – Geneva: UNRISD, 2002. – 79 p.; Spoor M. Agricultural Restructuring and Trends in Rural Inequalities in Central Asia: A Socio-Statistical Survey. Programme on Civil Society and Social Movements. – Geneva: UNRISD, 2004. – P. 4; Micklin P.P. The Aral Sea Disaster // Annual Review of Earth and Planetary Sciences, Volume 35. – Chicago, 2007; Духовный В.А., Шутгер Ю. Вода в Центральной Азии: прошлое, настоящее, будущее. – Алматы, 2018. – 466 с.
10. Komilov O. From the history of irrigation and land-reclamation in Uzbekistan. Monograph, - ISBN-10, ISBN-13. –Germany: Amazon. Scholars press. January 2022.- p.120.
11. Komilov O. Land reclamation and irrigation measures of virgin lands in Karshi Steppe // Frontline Social Sciences and History Journal 2 (01), 2022.p.35-40.
12. Omonova S. ATTENTION AND ACHIEVEMENTS IN WOMEN'S SPORTS (ON THE EXAMPLE OF UZBEKISTAN) //ZAMONAVIY TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLARI. – 2022. – Т. 1. – С. 30-32.
13. Omonova S. ATTENTION TO WOMEN'S SPORTS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN //ZAMONAVIY TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLARI. – 2022. – Т. 1. – С. 43-44.